

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV IKROM ESHPO‘LATOVICH

**ELEKTRON TA‘LIM MUHITIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING
KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Tursunov Ikrom Eshpo'latovich

Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini
takomillashtirish..... 3

Турсунов Икром Эшпулатович

Повышение профессиональной подготовки будущего инженера в
электронной образовательной среде..... 22

Tursunov Ikrom Eshpo'latovich

Improving the professional training of the future engineer in the e-learning
environment..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2020. Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TURSUNOV IKROM ESHPO‘LATOVICH

**ELEKTRON TA‘LIM MUHITIDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING
KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4414 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov A’zam Abdusalomovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karlibayeva Guljaxon Ermekbayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yaxyaev Sobir Jumakulovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.S.Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

S.S.Bulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida elektron dasturiy vositalar yordamida ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirishning kreativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. UNESCO va Xalqaro universitetlar assosiatsiyasi (International Association of Universities – IAU) dasturlarida ta'lim texnologiyalarini va qo'llashga¹ mutaxassislarini tayyorlashda nafaqat ijtimoiy va ishlab chiqarish munosabatlarining holatiga, mutaxassislarning qobiliyatini raqamli iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohasidagi texnologiyalashuvlar va o'zgarishlar jarayonida moslashishga, nostandart vaziyatlarda yechimlarni topishga va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda fanlarni o'qitishda ta'lim jarayoniga innovasion texnologiyalarni qo'llash hamda shu orqali ta'lim sifatini ta'minlash, fanlarning amaliy tatbiqlari samaradorligini oshirish va muhandislarni kasbga yo'naltirish, axborot jarayonlari, hodisalari, ular o'rtasidagi munosabatlarni modellashtirish asosida qabul qilingan qarorlar natijalarini bashorat qilish va tahlil qilishga o'rgatish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro tajribalarga ko'ra, oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash tizimida 3D grafik dasturlari (AutoCAD, Sketch up, Sweet Home 3D, Blended va NanoCAD) kabi dasturlar asosida ishlab chiqilgan ta'lim vositalarining yangi avlodini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ijtimoiy-ijtimoiy va ilmiy-texnik jarayonlarda yuzaga keladigan muammasalarni hal qila olishlari uchun texnika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatini rivojlantiruvchi innovatsion yondashuvlardan foydalanish, dars jarayonlarini tashkil etishda dasturiy ta'minotlarni, dasturlashtirilgan ta'lim vositalarini samarali qo'llash qo'llash, 3D grafik dasturlari orqali o'qitish jarayoni tuzilmasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Raqamli ta'limni rivojlantirish, ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish, oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish"² ustuvor etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775 son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

¹ IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 * IAU HORIZONS. https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6079-son Farmoni

islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kasbiy faoliyatga tayyorlash, jumladan, pedagogik va kasb faoliyat jarayonini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari N.A.Muslimov, A.R.Xodjabayev, Q.T.Olimov, A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, Z.K.Ismailova, Sh.E.Qurbonov, R.H.Djo'rayev, Ya.H.Haydarov, D.N.Mamatov, S.Q.Tursunov, F.M.Zakirova, A.Hayitov; elektron axborot-ta'lim resurslarini ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari B.Begalov, S.S.G'ulomov, U.Yu.Yuldashevlar va boshqalarning ishlarida pedagogik muammo sifatida tadqiq qilingan.

Kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalari asosida o'qitish jarayonini tashkil etish, dasturiy vositalar bilan bog'liq masalalar S.A.Beshenkov, S.G.Grigoryev, V.V.Grinshkun, S.D.Karakozov, A.A.Kuznesov, M.P.Lapchik, R.M.Magomedov, Ye.I.Mashbis, V.M.Monaxov, G.M.Nurmuxamedov, S.V.Panyukova, I.V.Robert, N.I.Rijova, M.A.Surxayev, Ye.K.Xennerlar ilmiy tadqiqotlaridan o'rin olgan.

Ta'limda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash sohasidagi ishlar, innovasion muhitda kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq masalalar xorijiy mamlakat olimlari B.Andresen, E.L.Cowen, L.Harvey, W.N.Chambers, D.Kegan, J.Locard, U.Mangal, F.Raymond, M.Rosenberg, M.Hamiltonlar tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish konseptual modelini takomillashtirish;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modelini takomillashtirish;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'sirchanligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni belgilanib, unda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti Buxoro filiali, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutidan 435 nafar talaba ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni, metodi, shakli, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suxbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari ta'lim mazmunini o'quv materiallariga moslashtirish, mavzuni o'zlashtirish usulini tanlash, o'zini boshqarish imkoniyatini kengaytirish, taqdimotning obrazli-vizual shaklini tanlash hamda mashg'ulotlar intensivligini oddiydan-murakkabga qarab rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish konseptual modeli talabalarning faoliyatini kasbiy tayyorgarlikda muayyan ziddiyatlarning optimal echimlarni topish tezkorligiga o'rgatish, shaxsiy sifatlarning kasbiy mahoratga bevosita ta'sirining ob'ektiv omillarini prognostik belgilash jarayonini pedagogik modellashtirish asosida takomillashtirilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modeli professional jihatdan muhim kasbiy fazilatlarni rivojlantirishning ichki motivlarini aniqlash, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va umumiy-madaniy talablarni belgilash hamda matematik modellashtirishning elektron-ta'lim muhitini muqobil va variativ shaklga yaxlitlash asosida takomillashtirilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'sirchanligi kasbiy bilimlarni kognitiv-aksiomatik, motivatsion-qadriyati va refleksiv tarzda o'zlashtirishga erishish hamda kasbiy faoliyatini kompleks rejalashtirishda talab va ehtiyoj, qarash va e'tiqod fazilatlarining integrativ xususiyatlarini kompleks yaxlitlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika oliy ta'lim muassasalarida aniq fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitishning hozirgi holati tahlil etilib, oliy ta'lim muassasalarida yangi axborot texnologiyalarining o'quv jarayoniga ta'siri ochib berilgan;

kasbga yo'naltirib o'qitishning mazmunan o'ziga xosligi va axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari o'rganish davomida «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha masalalar to'plami va yechimlari» nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

elektron dasturiy ta'minotlar asosida fan mazmuni bo'lajak muhandislarni kasbga yo'naltirib o'qitishda foydalanishni ta'minlovchi model asosida takomillashtirilgan;

yangi axborot texnologiyalari orqali bo'lajak muhandislarning kasbga yo'naltirib o'qitish bo'yicha tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan tursunov.tdpu.uz elektron sayti ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari yordamida asoslanganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatga tayorlash jarayonida elektron ta'lim muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik shart-sharoitlarning aniqlanganligi; kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan interaktiv elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayoniga tadbiq qilinganligi; talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan zamonaviy dasturiy vositalarning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan elektron ta'lim muhiti modeli takomillashtirilganligi, undan amaliyotda foydalanish; kasbga yo'naltirib o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalardan foydalanish metodikasining shakllantirilganligi va ulardan o'quv kurslari mazmunini hamda o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish, zamonaviy o'quv-metodik ta'minotni yaratish va ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari ta'lim mazmunini o'quv materiallariga moslashtirish, mavzuni o'zlashtirish usulini tanlash, o'zini boshqarish imkoniyatini kengaytirish, taqdimotning obrazli-vizual shaklini tanlash hamda mashg'ulotlar intensivligini oddiydan-murakkabga qarab rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha masalalar to'plami va echimlari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'iga asosan berilgan 500-002 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy faoliyatida elektron dasturiy ta'minotdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishga sharoit yaratilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish konseptual modeli talabalarning faoliyatini kasbiy tayyorgarlikda muayyan ziddiyatlarning optimal echimlarini topish tezkorligiga o'rgatish, shaxsiy sifatlarning kasbiy mahoratga bevosita ta'sirining ob'ektiv omillarini prognostik belgilash jarayonini pedagogik modellashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar "Oliy matematika bo'limlari bo'yicha o'quv qo'llanma (rus tilida)" nomli

o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-021 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada elektron ta'lim muhitidan foydalanish modelini takomillashtirishga erishilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modeli professional jihatdan muhim kasbiy fazilatlarni rivojlantirishning ichki motivlarini aniqlash, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va umumiy-madaniy talablarini belgilash hamda matematik modellashtirishning elektron-ta'lim muhitini muqobil va variativ shaklga yaxlitlash asosida takomillashtirishga doir ma'lumotlar "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika bo'yicha masalalar to'plami va echimlari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'iga asosan berilgan 500-002 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada fan mazmunini mutaxassislarini kasbga yo'naltirilgan holda foydalanishga sharoit yaratilgan;

elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'sirchanligi kasbiy bilimlarni kognitiv-aksiomatik, motivatsion-qadriyati va reflektiv tarzda o'zlashtirishga erishish hamda kasbiy faoliyatini kompleks rejalashtirishda talab va ehtiyoj, qarash va e'tiqod fazilatlarining integrativ xususiyatlarini kompleks yaxlitlash asosida takomillashtirish yuzasidan takliflar "Oliy matematika bo'limlari bo'yicha o'quv qo'llanma (rus tilida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 4-maydagi 285-son buyrug'iga asosan berilgan 285-021 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada elektron ta'lim muhiti asosida kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, ulardan 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda maqola chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak muhandislar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy jihatlari, elektron ta'lim muhitini tashkil etishning

pedagogik xususiyatlari, bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda elektron ta'lim muhitining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potentsiali ulushini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotida innovasion texnika va texnologiyalarni qo'llash, bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanish muammosini tizimli tadqiq qilishni nazarda tutadi.

Kasbiy tayyorgarlik har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanib, kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish va takomillashtirish masalalari turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. A.R.Hodjaboyev kasbiy tayyorgarlik tushunchasini faoliyatning ichki va tashqi omillar bilan determinatsiyalashgan dinamik hodisa deb belgilaydi. V.A.Slasteninning fikriga ko'ra tayyorgarlik tarkibiga ikki o'zaro bog'liq komponentlar kiritiladi: motivatsion-qadriyatli va ijrochilik. Mos ravishda motivatsion va operatsional tayyorgarlikni ajratadilar. Bunda tayyorgarlik kasbiy faoliyat sohasidagi bilim va ko'nikmalarni egallashga, dastlabki kasbiy tajribani to'plashga asoslanadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy-ilmiy fanlar yordamida kasbga yo'naltirib o'qitish masalalariga bo'lgan o'z qarashlarini M.S.Amosov, O.B.Bochkarev, S.V.Plotnikov va boshqalar dissertatsiya tadqiqotlarida bayon qilishgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan tahlil natijalaridan va olimlarning fikr hamda mulohazalaridan, kasbiy faoliyatni amalga oshirish – mazmuniy, metodik, psixologik aspektlarga bog'liq ekanligini bilgan holda, ushbu aspektlarni biz o'z qarashlarimiz bilan to'ldirishga harakat qilamiz. Mazmuniy aspekt deganda: bo'lajak muhandislarni kasbiy yo'naltirib o'qitish metodikasiga mos keluvchi elektron ta'lim muhitining amaliy ahamiyatiga e'tibor qaratish; o'quv materiali mazmuniga, kasbiy faoliyatiga oid masalalarni elektron dasturiy vositalar yordamida yechishni ifodalab beruvchi o'quv materiallarni ajratish; faktologik, nazariy va amaliy darajalar bayoniga kiritilgan kasbiy materiallar nazarda tutiladi.

Metodik aspekt deyilganda, kasbiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan ta'limning turli metod, shakl hamda dasturiy ta'minotlarini qo'llash tushuniladi. Masalan, amaliy masalalarni yechishda matematik modellashtirish dasturiy ta'minotlarini qo'llash, elektron resurs asosida yaratilgan qo'llanmalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil qilish, standart va nostandart testlarni qo'llash, ma'ruzalarning faol shakli va boshqalar.

Psixologik aspekt deyilganda, shaxsni kasbiy faoliyatda motivatsiyani kuchaytirish natijasi sifatida fanlarni o'qitish jarayonida talabalarni kelgusida egallashlari lozim bo'lgan kasbiga qiziqishlarini rivojlantirishda elektron ta'lim muhitidan foydalanish tushuniladi.

Bizning fikrimizcha kasbiy faoliyatini takomillashtirishda mutaxassislik fanlari ta'limining asosini tashkil etadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari ta'limidagi boshqa jarayonlar bu kasbiy faoliyatini takomillashtirish atrofida birlashib, yaxlitlikni tashkil qiladi va u fanlarni o'qitishning asosiy maqsadi - bo'lg'usi texnologlarni

kasbiy faoliyatidagi elektron dasturiy vositalari bo'yicha tayyorgarligini shakllantirishni ta'minlaydi. Qator didaktik tamoyillarga amal qilishni esa, biz talabalarni elektron dasturiy vositalari asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi shartlaridan deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar oliy ta'limni rivojlantirish davlat strategiyasida belgilanadi. Oliy ma'lumotga ega mutaxassisni tayyorlash mazmuni va darajasiga qo'yiladigan davlat talablari kasbiy faoliyati va ma'naviyatini oshirishga qaratilgan umumiy talablarni ham o'z ichiga oladi. Inson faoliyatining barcha sohalaridagi o'zgarishlar, jamiyatning shakllanishi, bozor munosabatlari va taktikasiga qo'yiladigan talablar bu mutaxassislarni tayyorlashning asosini tashkil etadi.

Tadqiqot ishida bo'lajak mutaxassisning shaxsini loyihalash uning kasbiy faoliyatining tarkibiy va funktsional xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shaxsiyatning muhim xarakteristikasi bu birinchi navbatda uning shakllanishini belgilaydigan va shaxs o'zini namoyon qiladigan, boshqaradigan faoliyatdir. Amalga oshirilgan nazariy tahlil shaxsning rivojlanishi va u amalga oshiradigan tadbirlar o'rtasida dialektik o'zaro bog'liqlik mavjud degan xulosaga kelish imkonini berdi. Shaxsni shakllantirishning sharti bu faoliyatni o'zi rivojlantirish, takomillashtirishdir.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladigan zamonaviy elektron ta'lim muhitidan foydalanish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni ta'minlash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Ma'lumki, elektron ta'lim muhiti – ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining samarali o'zaro aloqasini ta'minlash uchun dasturiy ta'minot va vositalar to'plamiga ega axborot kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasidir. U kompyuter yoki mobil qurilmalar vositasida raqamli tizim yoki mobil ilovalar orqali onlayn sharoitda bilim olish va bilimlarni nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari elektron ta'lim tizimida ham kasbga yo'naltirishni amalga oshirishga bag'ishlangan ishlarda, aniq fanlar materialini va uni amalga oshirish usullarini tanlash, o'ziga xos tomonlarini aniqlash, talabalarning psixologik holatlari va bu ixtisosliklarda xususan, matematik va fizik ta'limning umumiy muammolari bilan bog'liq tomonlari qarab o'tilgan.

Bundan tashqari, dasturiy ta'minotlar o'quv jarayonida talabalar bilan kompyuter o'rtasida, hatto ular maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagan taqdirda ham dialogni tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot ishida bir qator olimlarning tadqiqot ishlari va adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, axborot telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ular dastlabki ma'lumotni kompyuter texnologiyalari orqali mahalliy ma'lumotlar banklarida, aniq o'quv va ilmiy muassasalarning axborot bazalarida kasbiy faoliyat turlarini loyihalash va modellashtirish yagona modelga birlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda aniq fanlarni kasbga yo'naltirib o'qitishda muammolarni matematik modellashtirish metodlari, zamonaviy elektron materiallar, amaliy masalalarni yechish masalalari ko'rib chiqilgan. Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalarga asoslanib, oliy ta'lim muassasalari talabalariga fanlarni o'qitishda kasbga yo'naltirish masalalarini dasturiy vositalardan foydalanish taxlil qilindi. Texnika oliy ta'lim muassasalarining talabalarga aniq fanlardan ta'lim berish orqali kasbga

yo'naltirilganlik – talabalarga matematika fanidan olingan bilimlarni qo'llashni tahlil qilgan holda, ta'lim mazmuni va dasturlarini aniqlashtirishga qaratilgan, pedagogik usul va metodlarni tartibli shaklda tadbiiq etishni o'zida jamlagan, elektron dasturiy vositalar kasbiy faoliyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda eng muhim didaktik tushuncha sifatida qarab chiqilgan.

Elektron ta'lim muhiti asosida axborot jarayonlarini avtomatlashtirish vazifasi hal qilinmoqda. Har qanday sohada, shuningdek butun jamiyatda axborot mustaqil tarkibiy qism, moddiy xarakterga ega bo'lgan manbaa sifatida ajralib turadi. Ta'limdagi elektron ta'lim muhiti muammosi, boshqa har qanday pedagogik nazariya va amaliyot singari, o'zining tarixiy va pedagogik evolyutsiyasiga ega: kelib chiqishi, shakllanishi, takomillashtirilishi, tasdiqlanishi va tarqalishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, insoniyat mavjud bo'lgan davrdan boshlab to'plangan bilim sifatida ma'lumot to'plash, tanlash, tizimlashtirish va uzatish muammolariga duch keldi. Keyin ushbu jarayon yozuvni rivojlantirish jarayonida texnik yordam oldi. To'plangan bilimlarni keyingi avlodlarga etkazish uchun aks turli xil ma'lumot tashuvchilar vujudga kelgan.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, axborot telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Ular dastlabki ma'lumotni kompyuter texnologiyalari orqali mahalliy ma'lumotlar banklarida, aniq o'quv va ilmiy muassasalarning axborot bazalarida saqlanadigan yagona oqimga birlashtirishga imkon berdi. Shu bilan birga: axborot-pedagogik infratuzilmasiga kiritilgan kompyuter bazasini birlashtirgan axborot-kompyuter tarmog'i shakllanmoqda; yangi turdagi yaxlit axborot massivlari yaratilmoqda, har xil ma'lumotlarga kirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bu ma'lumotlar asosida elektron dasturiy vositalar ham ta'lim jarayoniga kirib keldi, hodisalar va jarayonlar har tomonlama tavsiflandi, o'quv ma'lumotlarini realizatsiya qilish va o'zlashtirish jarayoni tezlashdi hamda ta'lim jarayoni va ta'lim muassasasida elektron ta'lim muhiti tashkil etildi.

Hozirgi paytda oliy ta'limining o'ziga xos xususiyati ta'limni axborotlashtirishning instrumental va texnologik vositalarining rivojlanishini talab qilib, eng keng tarqalgani standart elektron dasturiy vosita va uslubiy vositalar asosida yaratilgan avtomatlashtirilgan o'quv tizimlari bo'lmoqda. Bu borada ta'lim tizimida bir qator ishlar amalga oshirildi. Natijada quyidagilar yaratildi: o'qitish uchun kompyuter texnologiyalariga moslashtirilgan o'quv laboratoriyalar va ulardan foydalanish tushunchasi; dasturiy vositalar to'plami; interfaol ta'lim dasturlarini loyihalashga yo'naltirilgan mualliflik tillari; mualliflik huquqi tizimlari (ta'lim dasturlarini loyihalashtirish uchun avtomatizatsiya tizimlari); eksperimental ekspert konsalting tizimlari (ta'lim maqsadlari uchun bilim bazalarini instrumental va uslubiy qo'llab-quvvatlash uchun elektron dasturiy vosita tizimlari) uslubiy vositalar to'plami.

Elektron ta'lim muhitining rivojlanishi va uni o'quv jarayoniga tatbiq etish ko'lamining kengayishi pedagogika fanining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Dasturiy-metodik kompleksida o'quv elektron dasturiy vosita va boshqalar kabi tushunchalar ommalashdi. Bizningcha, ta'lim berish jarayonini asoslash nuqtai nazaridan kasbga yo'naltirilganlikni didaktik tamoyil deb qarash to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz.

Mazkur tamoyil tizimni tashkil etuvchi va oliy ta'lim didaktikasini asosiy tamoyillaridan biridir. Kasbiy yo'naltirilganlikning asosiy funksiyalari quyidagilardan: tizimlilik, integrativlik, tabaqalashtirilganlik, insonparvarlik, motivatsiya, ijtimoiylik, iqtisodiy, tashhis qo'yish va tarbiyaviylikdan iborat.

Kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili metodologik, konstruktiv, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi funksiyalarni ham bajarishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirishda elektron dasturiy vositalaridan foydalanish, uni takomillashtirishda bir qator olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqilgan. Masalan, A.A.Abduqodirov, N.Toyloqov, U.Begimqulov, M.Lutfullaev va boshqalarning ishlarida yuqoridagi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot ishida elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari ta'lim mazmunini o'quv materiallariga moslashtirish, mavzuni o'zlashtirish usulini tanlash, o'zini boshqarish imkoniyatini kengaytirish, taqdimotning obrazli-vizual shaklini tanlash hamda mashg'ulotlar intensivligini oddiydan-murakkabga qarab rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Elektron ta'lim muhitining tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi: tarmoq uskunalari, dasturiy vositalar, telefon liniyalari, optik tolali va sun'iy yo'ldosh aloqa kanallari va boshqalar. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ma'lumotlar ko'pincha kompyuterlarga yo'naltirilgan dasturlashtirilgan ta'lim g'oyalarini rivojlantiradi. Ammo tashkiliy shakllarda talabalarning individual ishlari yoki kichik guruhlarda ishlash ustunlik qiladi.

SHu bilan birga, o'qitish va namoyish qilish, kompyuterni loyihalash muhiti, tayyor kompyuter laboratoriya majmualari, elektron kitoblar, interfaol animatsion kompyuter modellari qo'llaniladi. Bir qator tadqiqotlar zamonaviy o'quv jarayonini axborotlashtirish va turli fanlarni o'qitishda elektron dasturiy vositalaridan foydalanish asoslariga bag'ishlangan bo'lib bunday sharoitda ta'limni axborotlashtirishni nazorat qilish kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish tizimi”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda elektron ta'lim muhiti asosida muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mazmuni, bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini elektron ta'lim muhitida takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modeli bayon qilingan.

Dars jarayonida elektron dasturiy vositalardan foydalanishning imkoniyatlari quyidagilardan iborat. Xususan, ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlardagi faollashuvi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining oshishi; o'qituvchi va ta'lim oluvchi vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishi; barcha oliy ta'lim muassasalar zarur adabiyotlar bilan ta'minlanadi va ular asosida bilim olish imkoniyati yaratiladi; kompyuter yordamida dars jarayoni davomida nazariyani amaliyotga bog'lab olib borishiga sharoit yaratilishi; yangi mavzuning keng hajmda o'rganilishi va o'zlashtirish samaradorligining oshishi; axborotning tez-tez yangilanib turishi; ta'lim oluvchilarning bilim darajalarini har tomonlama va majmuali tekshirib ko'rish imkoni mavjudligi; ta'lim oluvchilarning faolligi oshishi, fanga, ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishining kuchayishi; amaliy ish topshiriqlarini ilmiy-amaliy tekshirib ko'rish va

vazifani bajarishga ijodiy yondashishi; ta'lim oluvchining o'zini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qilishi, ilmiy izlanishi va ijodiy yondashishi; o'qituvchining muammolarni yechish ko'nikmalari, vaziyatni tezda baholay olishi, hozir javob bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lishi; mustaqil fikrlay oladigan ta'lim oluvchilarning shakllanishiga yordam berishi.

Yuqoridagilarga asoslanib, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun kasbga yo'naltirishni amalga oshirishning quyidagi yo'llarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Nazariyaga yo'naltirilgan kurslar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: mazkur ixtisosliklar uchun elektron ta'lim muhitiga oid bo'lgan materialni atroflicha bayon qilish va ajratib ko'rsatish hamda talabalar tomonidan bu materialni chuqurlashtirib o'zlashtirilishi; nazariy materialdan elektron ta'lim muhiti yordamida echiladigan kasbiy faoliyat bilan bog'liq amaliy masalalarini tanlash va kiritish; analitik, sonli va taqribiy metodlardan masalalar yechishda elektron ta'lim muhitida foydalanish;

Amaliyotga yo'naltirilgan kurslar quyidagi tipdagi masalalarni yechishni o'z ichiga oladi: talabalarning kasbiy faoliyatiga oid nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan (kontseptual modellar tuzish, blok-sxema, yechish rejasi, jadvallar) ijodiy topshiriqlar; mazkur ixtisoslikda ko'p foydalaniladigan aniq fanlar bilimlariga ko'nikma hosil qilishga e'tibor qaratilgan masalalar; asosiy maqsad – talabalarning kasbiy faoliyatida real holatlar uchun matematik modelni tuzishga o'rgatish, uni va olingan natijani tahlil qilish ya'ni o'z ixtisosligiga aniq fanlardan olgan bilimlarini qo'llashga doir, kasbiy-amaliy xarakterdagi matnli masalalar, mutaxassislik fanlarda ko'p qo'llaniladigan, sonli va taqribiy metodlardan foydalanish mumkin bo'lgan masalalar.

Tadqiqot ishida elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish konseptual modeli talabalarning faoliyatini kasbiy tayyorgarlikda muayyan ziddiyatlarning optimal echimlarni topish tezkorligiga o'rgatish, shaxsiy sifatlarning kasbiy mahoratga bevosita ta'sirining ob'ektiv omillarini prognostik belgilash jarayonini pedagogik modellashtirish asosida takomillashtirilgan bo'lib, nazariy bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar konseptual model tuzish, blok-sxemalar, yechim rejasi, jadvallar bilan ishlash asosida mustahkamlanadi.

Oliy matematika fanining har bir bo'limini o'rganishni boshlashdan oldin talabalarga bo'limning konseptual modelini taqdim etadi, unda mazkur bo'limni o'rganishdan maqsad, uning tuzilmasi, asosiy tushunchalari, ularning boshqa mavzular bilan bog'lanishi, amaliy tatbiq etilish sohasi ajratib ko'rsatiladi


O'quv jarayonining barcha jabhalarini har tomonlama, tizimli hisobga olish pedagogikada tizimli yondashuv pozitsiyasidan kelib chiqib, dissertatsiya ishimizning asosiy vazifasini hal etish yo'llarini belgilash va bo'lajak muhandislarning yangi elektron dasturiy vositalari orqali kasbiy faoliyatini samaradorligini oshirish imkonini berdi.

Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini dasturiy vositalar asosida tashkil etishning tarkibiy qismlari: maqsadli komponentlik; mazmun

komponenti; protsessual mohiyati; o'z-o'zini baholash; dasturiy vositalar orqali mashg'ulotlarni loyihalash.

Ilmiy tadqiqot ishida elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'sirchanligi kasbiy bilimlarni kognitiv-aksiomatik, motivatsion-qadriyati va refleksiv tarzda o'zlashtirishga erishish hamda kasbiy faoliyatini kompleks rejalashtirishda talab va ehtiyoj, qarash va e'tiqod fazilatlarining integrativ xususiyatlarini kompleks yaxlitlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotda elektron ta'lim muhitida kasbga yo'naltirib o'qitish strukturasi ishlab chiqilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Elektron ta'lim muhitida kasbga yo'naltirib o'qitish strukturasi

Elektron dasturiy-uslubiy majmualar elektron dasturiy tizimlar elementi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Elektron dasturiy-uslubiy majmuada o'qituvchi va talaba

o'rtasidagi pedagogik faol axborot hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida amaliy dasturiy mahsulotlar, tegishli mavzu yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar bazalari, o'quv jarayonini har tomonlama qo'llab-quvvatlovchi innovatsion metodik materiallar mavjud. Bunday tizimning elementlari elektron diagnostika vositalari, an'anaviy bosma nashrlar to'plami bilan birga, ma'ruzalar video kurslaridir.

Elektron dastur va uslubiy majmuaning o'ziga xos tarkibi fanning predmet sohasi, o'quv rejasidagi o'rni, boshqa fanlar bilan bog'liqligi va virtual yoki multimedia muhitida namoyon bo'lish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

Ma'ruzalar oliy ta'limda o'quv-tarbiya jarayonining asosi bo'lganligi sababli, bizningcha, yangi elektron dasturiy vositalarga aktiv bo'lgan yangi texnik vositalar kiritilishi kerak, Yangi texnik vositalar orqali elektron ma'ruza va xulosalar kompyuter animatsiya effektlari va ma'ruza video kursi tashkil etish alohida o'rin bilan ajralib turadi.

Ma'ruzalar, video kursi, matn va grafikni qo'llab taqdimotlarni (fotosuratlar, diagrammalar, grafiklar, chizmalar va h.k.) dasturiy tarzda birlashtirish imkonini beradi. Bunda kompyuter animatsiyasi va o'rganilgan jarayonlarni raqamli modellashtirishni talab etadi. O'quv materialini taqdim etishda elektron ta'lim muhiti (kompyuter va audio-video jihozlarning texnik imkoniyatlari) ma'ruzachining auditoriya bilan jonli muloqotini birlashtiradi.


Elektron ta'lim muhitida ma'ruza mashg'ulotlari-ekranda yoki monitorda namoyish etiladigan axborot obyektlarining tematik va mantiqiy bog'liq ketma-ketligida amalga oshiriladi. Elektron ma'ruzaning asosiy vazifasi an'anaviy-yangi materialni tushuntirish bilan bir xildir. Lekin an'anaviydan farqli o'laroq, elektron ma'ruza tasviriy materiallarni (axborot obyektlarini) jalb qilishda katta imkoniyatlarga ega. Shuning uchun elektron ma'ruza o'qituvchi ishida oldin mavjud bo'lmagan yangi vosita sifatida qaralishi, ko'rgazmali va ko'proq axborotga boy darslar yaratish imkonini berishi lozim.

Dissertatsiya ishida elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modeli professional jihatdan muhim kasbiy fazilatlarni rivojlantirishning ichki motivlarini aniqlash, tashqi ijtimoiy-iqtisodiy va umumiy-madaniy talablarni belgilash hamda matematik modellashtirishning elektron-ta'lim muhitini muqobil va variativ shaklga yaxlitlash asosida takomillashtirilgan (2-rasmga qarang).

Elektron ta'lim muhitida bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish modeli beshta o'zaro bog'liq bloklardan iborat: maqsadli va mazmunli blok; pedagogik - tashkiliy blok; natijaviy blok.

